

KASBIY FAOLIYATDA HALOLLIK VA HALOL LUQMA

*Nilufar Boyxanova Ravshanbekovna**Kosonsoy tuman 2 - son texnikumining Yoshlar
bilan ishlash bo'yicha direktor o'rinbosari*

Annotatsiya: Mazkur maqolada kasbiy faoliyat jarayonida halollik tamoyiliga amal qilishning ahamiyati hamda halol mehnat evaziga topilgan rizqning inson hayoti va ma'naviy kamolotiga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, halollik, mas'uliyat, vijdonlilik va kasbiy etika kabi tushunchalarning jamiyat rivojidadagi o'rni tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: halollik, kasbiy etika, halol mehnat, halol rizq, mas'uliyat, vijdonlilik, ma'naviy tarbiya, mehnatsevarlik, kasbiy madaniyat, axloqiy qadriyatlar.

Аннотация: В данной статье рассматривается значение соблюдения принципа честности в процессе профессиональной деятельности, а также влияние средств к существованию, заработанных честным трудом, на жизнь человека и его духовное совершенствование. Кроме того, анализируется роль таких понятий, как честность, ответственность, добросовестность и профессиональная этика, в развитии общества.

Ключевые слова: честность, профессиональная этика, честный труд, честный заработок, ответственность, добросовестность, духовное воспитание, трудолюбие, профессиональная культура, нравственные ценности.

Abstract: This article highlights the importance of adhering to the principle of honesty in professional activities and examines the impact of livelihood earned through honest work on an individual's life and spiritual development. It also analyzes the role of such concepts as honesty, responsibility, conscientiousness, and professional ethics in the development of society.

Keywords: honesty, professional ethics, honest work, lawful livelihood, responsibility, conscientiousness, spiritual education, diligence, professional culture, moral values.

Halollik inson hayotidagi eng muhim axloqiy fazilatlardan biri hisoblanadi. Barcha ezgu ishlar va ijobiy natijalarning negizida aynan halollik yotadi. Ushbu fazilat yaxshilik, baraka, xotirjamlik va osoyishtalik kabi ko'plab ijobiy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liq. Shuning uchun ham jamiyat taraqqiyoti va inson kamolotida halollik alohida o'rin tutadi. Halol inson odatda pok vijdon, yuqori obro' va atrofdagilar hurmatiga ega bo'ladi. Xalqimizning asrlar davomida shakllangan maqol va hikmatlari ham halollikning ahamiyatini yaqqol ifodalaydi. "Ishlab topgan oshing lazzatli", "Oshing halol bo'lsa, ko'chada ich" kabi maqollar mehnat va halol rizqning qadrini ulug'laydi. Shuningdek, poraxo'rlik va noqonuniy daromadning salbiy

oqibatlarini haqida ham ko'plab xalqona hikmatlar mavjud. Ayrim kishilar halol yo'l bilan muvaffaqiyatga erishish qiyin, degan noto'g'ri qarashga ega bo'lishlari mumkin. Biroq hayotiy tajriba shuni ko'rsatadiki, uzoq muddatli muvaffaqiyat va barqaror farovonlik aynan halol mehnat asosida shakllanadi. Halollik insonga moddiy manfaatdan tashqari, ruhiy xotirjamlik va ichki qoniqish ham beradi. Insonning haqiqiy baxti ko'p hollarda uning qalb osoyishtaligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda ba'zi insonlar barcha muammolarni pul hal qiladi, degan fikrga berilishadi. Aslida esa pul ko'plab moddiy ehtiyojlarni qondira olgan taqdirda ham, sog'liq, vaqt, chin do'stlik, ruhiy osoyishtalik va bilim kabi muhim qadriyatlarni to'liq ta'minlay olmaydi. Aynan shu sababli hayotning eng muhim ne'matlari moddiy boylikdan ko'ra ko'proq ma'naviy va axloqiy qadriyatlar bilan bog'liqdir. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, halol va vijdonli insonlarda ichki xotirjamlik, samimiy munosabatlar hamda ma'naviy boylik ko'proq uchraydi. Shu bilan birga, hayotning asosiy maqsadini faqat moddiy manfaat bilan bog'lagan ayrim kishilar esa ko'pincha ushbu qadriyatlardan mahrum bo'lib qoladilar. Demak, halollik nafaqat axloqiy me'yor, balki insonning baxtli va mazmunli hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan muhim hayotiy tamoyildir.

Har qanday kasb vakili mehnat faoliyati davomida muhim va mas'uliyat talab qiladigan vaziyatlarga duch keladi. Bunday paytlarda vijdonlilik, mas'uliyat hissi hamda halollik tamoyillariga tayanish eng maqbul qarorlarni qabul qilishga xizmat qiladi. Kasb turi qanday bo'lishidan qat'i nazar, o'z xizmat vazifalarini sidqidildan va halol bajarish jamiyat taraqqiyoti hamda xalq farovonligining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Halol mehnat evaziga topilgan daromad inson hayotining moddiy va ma'naviy barqarorligini ta'minlaydi. Halol luqma inson qalbida xotirjamlik, oilasida esa totuvlik va baraka muhitini shakllantiradi. Aksincha, noqonuniy yoki axloqiy me'yorlarga zid yo'llar bilan orttirilgan mablag'lar shaxsning ma'naviy olamiga salbiy ta'sir ko'rsatib, jamiyatda adolatsizlik va ishonchsizlikning kuchayishiga sabab bo'lishi mumkin. Ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ma'naviy merosda halol mehnat va pok rizq masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Xalq og'zaki ijodida uchraydigan hikmatli so'zlar va maqollar mehnatsevarlik, halollik hamda vijdonlilik kabi fazilatlarini ulug'laydi. Ushbu qadriyatlar yosh avlodni barkamol inson etib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy globallashtirish sharoitida kasbiy etika va halollik masalalarining dolzarbligi yanada ortib bormoqda. Korrupsiya, poraxo'rlik va xizmat vakolatlaridan shaxsiy manfaat yo'lida foydalanish kabi salbiy holatlar jamiyatning barqaror rivojlanishiga jiddiy zarar yetkazadi. Shu sababli har bir mutaxassisda adolatparvarlik, mas'uliyat va halollik fazilatlarini shakllantirish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. Kasbiy faoliyatda halollik tamoyillariga amal qilish nafaqat alohida shaxsning muvaffaqiyatiga, balki muassasa va tashkilotlar faoliyatining samaradorligiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Halol va vijdonli xodimlar faoliyat yuritadigan jamoalarda o'zaro ishonch, hamkorlik va mehnat unumdorligi

yuqori bo‘ladi. Natijada bunday muhit iqtisodiy yuksalish va ijtimoiy taraqqiyot uchun mustahkam zamin yaratadi.

Zamonaviy jamiyatda kasbiy faoliyatning samaradorligi nafaqat mutaxassisning bilim va malakasiga, balki uning axloqiy fazilatlariga ham bevosita bog‘liqdir. Xususan, halollik va vijdonlilik kasbiy munosabatlarning mustahkam poydevori bo‘lib xizmat qiladi. Har qanday sohada faoliyat yurituvchi shaxs o‘z vazifalarini mas’uliyat bilan bajarishi, qonuniylik va adolat tamoyillariga amal qilishi orqali jamiyat ishonchini qozonadi. Halol mehnat natijasida qo‘lga kiritilgan daromad insonning moddiy farovonligi bilan bir qatorda uning ma’naviy qoniqishiga ham zamin yaratadi. Bunday mehnat mahsuli shaxsda o‘z kuchiga bo‘lgan ishonchni mustahkamlaydi, jamiyatda esa sog‘lom ijtimoiy muhit shakllanishiga xizmat qiladi. Shu sababli halollikni faqat axloqiy talab sifatida emas, balki kasbiy muvaffaqiyat va barqaror taraqqiyotning muhim omili sifatida baholash maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunda yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirish jarayonida ularda halol mehnatga hurmat, mas’uliyat hissi va kasbiy etikaga sodiqlik kabi sifatlarni rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki kelajak taraqqiyoti bilimli, ma’naviy yetuk va halol avlod qo‘lida ekanligi

Ma’rifatparvar adib va pedagog **Hamza Hakimzoda Niyoziy** yosh avlod tarbiyasida mehnat va kasb-hunar egallashning ahamiyatiga alohida e’tibor qaratgan. Uning fikricha, ta’lim muassasalari nafaqat bilim berishi, balki o‘quvchilarni odobli, mas’uliyatli va halol insonlar etib tarbiyalashi lozim. Bu jarayonda mehnat tarbiyasi yoshlarning ma’naviy fazilatlarini shakllantirishning muhim vositasi hisoblanadi. Buyuk mutafakkir **Alisher Navoiy** ham inson kamolotida mehnatning o‘rnini yuksak baholagan. U o‘z asarlarida mehnatsevarlikni ulug‘lab, insonning jamiyatdagi obro‘-e’tibori va ma’naviy yetukligi halol mehnat bilan bog‘liqligini ta’kidlaydi. Xususan, “Farhod va Shirin” dostonidagi Farhod obrazi mehnatsevarlik, matonat va fidoyilik timsoli sifatida gavdalanadi. Asar qahramoni o‘z hunari va mehnati orqali odamlarga manfaat keltirib, xalq hurmatiga sazovor bo‘ladi. Bu esa mehnatning nafaqat moddiy, balki ma’naviy qadriyat ekanligini ko‘rsatadi. Halollik va halol luqma masalasi bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Insonning ma’naviy barkamolligi, ruhiy osoyishtaligi va jamiyatdagi nufuzi ko‘p jihatdan uning halol hayot tarziga bog‘liqdir. Halollik kishining obro‘-e’tiborini oshiradi, unga atrofdagilarning ishonchi va hurmatini olib keladi. Shu bois halol mehnat va pok rizq inson hayotining eng muhim qadriyatlaridan biri sifatida e’tirof etiladi.

Xulosa qilib aytganda, halollik va halol luqma shaxs kamoloti hamda jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan hisoblanadi. Kasbiy faoliyatda halollik tamoyillariga amal qilish adolat, ishonch va samaradorlik muhitini shakllantiradi. Ayniqsa, pedagoglar yosh avlodga halollik, vijdonlilik va mehnatsevarlik fazilatlarini singdirishda alohida mas’uliyatga ega. Zero, ma’naviy yetuk, halol va fidoyi yoshlarni

tarbiyalash jamiyatning porloq kelajagini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyot va havolalar:

1. H.B.Haydarova, Yosh avlod tarbiyasida oila ma'naviyatining o'rni.
2. G'. Shoumarov "Oila psixologiyasi" Toshkent 2010-yil.
3. Imom al-Buxoriy. Al-jome' as-sahih.
4. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.